

SURXON QO'RIQXONASI FLORASIDAGI *FABACEAE* OILASINING “O'ZBEKISTON QIZIL KITOBIGA” KIRITILGAN TURLARI MORFOLOGIYASI VA TARQALISH AREALLARI

Atoyev Kayhon O'ktamovich

Termiz Davlat universiteti talabasi

akayhon@gmail.com

Annotatsiya: *Ko'hitang botanik-geografik rayyoni shimoldan Janubi-G'arbiy Hisor okrugining Tarqopchig'ay, sharqi va janubidan Surxon-Sherobod, hamda g'arbidan Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh bo'lib, taksonomik xilma-xillikning yuqoriligi, kamyob, endem hamda relik turlarga boyligi bilan ajralib turadi [4].*

Kalit so'zlar: *Astragalus L, TASH, Oxytropis D.C., flora, tog', turkum, tur, Oxytropis pseudoleptophysa Boriss, qizil kitob, toshli-shag'al, qo'riqxonona.*

Ko'hitang botanik-geografik rayonida S.A. Nevskiy [5], F.O. Xasanov [6] va A.J. Ibragimovlar [7] tomonidan tadqiqotlar olib borilgan va gerbariy namunalari yig'ilgan. Mazkur gerbariy ma'lumotlari tarqoq holatda bo'lib, mazkur tadqiqot hudud florasida to'g'risida yaxlit ma'lumot bermaydi. Ya'ni, ilmiy izlanishlarga bog'liq gerbariy namunalari hududning ma'lum bir qismi yoki hududlari bo'yicha mavjud. Bu esa mazkur rayon hududida aniq maqsadga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib borishga zarurat ortishi hamda ishning dolzarb ekanligidan dalolat beradi [4].

Kirish: O'zbekiston Respublikasi florasida *Fabaceae* oilasiga kiruvchi turlarning 54 tasi respublikamizning qizil kitobiga kiritilgan bo'lib bu esa bu oila turkum turlarining muhofazani ko'proq talab etishini ko'rsatadi. Shu jumladan surxon qo'riqxonasi florasidagi *fabaceae* oilasining turkum turlarining 8 tasi qizil kitobga kiritilgan.

Oxytropis D.C. turkumi vakillari *Fabaceae*, oilasiga mansub o'simliklar bo'lib Tog'li O'rta Osiyo va Eron - Turon floralarda o'ziga xos o'rinni egallaydi hamda mazkur floralarni o'zaro bog'lab turadi.

Oxytropis D.C. turkumining O'rta Osiyoda 166 dan ortiq [1], O'zbekistonda esa 60 dan ortiq turlari tarqalgan [2]. Oxirgi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar va Markaziy gerbariy (TASH) fondida saqlanayotgan namunalarni tahlil qilish natijasida mazkur florada turkumning 63 ta turi uchrashi ma'lum bo'ldi. Ko'hitang botanik-geografik rayyoni florasida tarkibida *Oxytropis D.C.* turkumining 4 turi uchraydi.

Oxytropis D.C. turkumining 6-ta turi “O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi” dan joy olgan. Ko'hitang tizmasi florasida *Oxytropis D.C.* turkumiga mansub faqatgina bitta tur “O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi” ga kiritilgan. [3].

Oxytropis pseudoleptophysa Boriss. in Not.Syst. Herb. Imst. Bot. Acad. Sci. URSS. 10 (1947) 79. - Vass. et B.Fedtsch. in FL. URSS. 13 (1948) 175. - Boriss. in Fl. Turkum. 4 (1949) 297. - Gonysh. In Fl. Uzbek. 3 (1955) 713. [1]. *Oxytropis pseudoleptophysa Boriss.* Bo'yi 4-10 sm, qalin Burma tuklar bilan qoplangan, poyasiz, ko'p yillik o't. Barglarining uzunligi 2-10 sm, cho'ziq, bandi hurpaygan oq tuklar bilan qoplangan. Bargchalari 5-8 juft,

uchli, har ikki tomoni paxmoq tukli, uzunligi 5-7 mm, eni 3-5 mm. Gulpopugi g'ovakroq, 8-12 gulli, kosachasining uzunligi 5-7 mm. Gulto'ji ko'k yoki havorang. Dukagi pufaksimon shishgan, tuxumsimon-yumaloq, yumshoq, hurpaygan oq tukli, uzunligi 13-18mm, eni 10-15 mm gacha yetadi. May-iyun oylarida gullab, iyun-iyulda yetiladi [3].

Oxytropis pseudoleptophysa Boriss. Asosan tog'larning o'rta qismlaridagi toshli-shag'alli yonbag'irlarida o'sadi va urugidan ko'payishi aniqlangan. [3].

Oxytropis pseudoleptophysa Boriss. Ko'hitang botanik geografik rayyoni florasidagi kamyob turlardan biri. Shu yaqin kunlarga qadar ushbu turning populyatsiyasi faqat Surxon davlat qo'riqxonasining ikta hududida aniqlangan. Birinchisi, Kampirtepa bo'limining yuqori qismi Zaharli dovonidagi (d.s. 2500-2700 m) toshli, shag'al-toshli yonbag'irlikda topilgan. Ikkinchi populyatsiyasi Qizilolma bo'limining shimolida (d.s. 2100-2600 m) mayda toshli, shag'alli yonbag'irliklarda aniqlangan. [8].

2022 yilgi dala tadqiqotlari natijasida *Oxytropis pseudoleptophysa* Boriss. ning yangi o'sish nuqtalari aniqlandi. Bu yangi o'sish nuqtalariyam aynan Surxon davlat qo'riqxonasi hududiga to'g'ri keladi. Yangi o'sish nuqtalaridan biri Surxon davlat qo'riqxonasining Sherjon bo'limida (d.s. 1466 m) mayda toshli-shag'alli tog' yon bag'ridan topilgan bo'lsa keyingi nuqtasi qo'riqxonaning Vandob bo'limidan (d.s. 1502 m) qizil tosh-shag'alli tuproqda o'sishi aniqlandi va gerbariy namunalari yig'ildi.



1-rasm. *Oxytropis pseudoleptophysa* Borissning 2022 yilgi dala tadqiqotlarida topilgan yangi areallari

A. Surxon davlat qo'riqxonasi vandob bo'limi. (37.733115 66.580452)

<https://www.google.com/maps/place/37%C2%B043'59.2%22N+66%C2%B034'49.6%22E/@37.7330667,66.5804197,579m/data=!3m1!1e3!4m4!3m3!8m2!3d37.733115!4d66.580452>

B. Surxon davlat qo'riqxonasi Sherjon bo'limi. (37.755832 66.626909)

<https://www.google.com/maps/place/37%C2%B045'21.0%22N+66%C2%B037'36.9%22E/@37.755832,66.626909,689m/data=!3m2!1e3!4b1!4m4!3m3!8m2!3d37.755832!4d66.6269>

09


Astragalus L. turkumi Tog'li O'rta Osiyo va Eron-Turon floralarida yetakchi o'rinni egallaydi hamda mazkur floralarni turlarga boyligi jihatidan o'zaro bog'lab turadi.

Astragal turkumining O'rta Osiyoda 600 dan ortiq, O'zbekistonda esa 254 dan ortiq turlari tarqalgan [1]. Oxirgi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar va Markaziy gerbariy (TASH) fondida saqlanayotgan namunalarni tahlil qilish natijasida mazkur florada turkumning 279 ta turi uchrashi ma'lum bo'ldi.

Ko'hitang botanik-geografik rayonida florasi tarkibida *Astragalus L.* turkumining 67 dan ortiq turi uchraydi va florada eng yirik turkumi hisoblanadi [2]. Olib borilgan izlanishlar natijasida tizma florasi tarkibidagi *Astragalus L.* turkumiga mansub 7 tur "O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi" tarkibiga kiritilgan [3].

1. *Astragalus subschachimardanus* Popov in Not. Syst. Herb. Inst. Bot. Acad. Sci. URSS. 10 (1947) 28. -Gontsch. et M.Pop. in Fl. URSS. 12 (1946) 866, ross. - Gontsch. In Fl. Uzbek. 3 (1955) 669. - V.V. Nikit. et Vass. in Fl. Turkm. 4 (1949) 277 - **Yumoloq to'pgulli astragal.** *Laguropsis* Bunge seksiyasiga mansub bo'lib, Ko'hitang tizmasining haqiqiy endemlaridan biri hisoblanadi. Hayotiy shakliga ko'ra - ko'p yillik o't. Tizmaning Qizilolma hududida d.s. 1500-2800 m balandlikda toshli, shag'al-toshli yonbag'irlarda o'sishga moslashgan [7]. Hozirgi vaqtda Markaziy gerbariy (TASH) fondida saqlanmoqda.

2. *Astragalus plumbeus* (Nevski) Gontsch. in Fl. URSS. 12 (1946) 868. - V.V. Nikit. Et Vass. in Fl. Turkm. 4 (1949) 277. Gontsch. in Fl. Uzbek. 3 (1955) 671. - **Qo'rg'oshin astragali** (*Fabaceae*). *Laguropsis* Bunge seksiyasiga mansub.




2-rasm. *Astragalus plumbeus*ning Google earth proda joylashish kordinatalari

Bu tur hayotiy shakliga ko'ra - ko'p yillik (gemikriptofit) o'simlik bo'lib, Ko'hitang tizmasining endem turi hisoblanadi. Asosan tizmaning sharqiy yonbag'ridagi Xo'janqo qishlog'ining yuqorisida, dengiz sathidan 1100-1500 m balandlikdagi ohak toshli va mayda jins

tuproqli yonbag'irlarda uchraydi. Ushbu turning eng so'gi gerbariy nqamunasi 1976-yil 4-iyul sanasida Oqrabot va sho'rob qishlog'lari orasida daryoning yuqori qismidan Pimenov va Baranovalar tomonidan gerbariy namunalari terilgan. Hozirgi vaqtda Markaziy gerbariy (TASH) fondida saqlanmoqda [7].


3. *Astragalus terrae-rubrae* Butkov in Not. Syst. Herb.Inst. Bot. Acad. Sci. Uzbek. 6 (1941) 6. - Gontsch. In Fl.URSS. 12 (1946) 382. -Gontsch. In Fl. Uzbek. 3 (1955) 572. - Qiziler astragali. *Alopecioides Gontsch* sektsiyasida yakka tur bo'lib, asosan Janubi-g'arbiy Pomir Oloyda tarqalgan kamyob, endem o'simlik. Hayotiy shakliga ko'ra - ko'p yillik o't. Ko'hitang tizmasi hududida Kampirtepa bo'limining Qoratolsoy yonbag'irlarida mayda toshli, ola jinsli yonbag'irlarda d.s. 1400-1700 m balandlikda o'sadi. 100 m² maydonga 25-35 dona o'simlik to'g'ri

keladi [7]. Ushbu tur arealogik taxliliga ko'ra, Hisor tizmasining Xo'jagurgur-Ota, Qizilsuv, Oqsuv daryolarining havzalarida ham tarqalgan.



3-rasm. *Astragalus terrae-rubrae*ning Google earth proda joylashish kordinatalari

4. *Astragalus willisii* Popov in Not. Syst. Herb. Horti. Bot. Petrop. 4 (1923) 155. - Gontsch. in Fl.URSS. 12 (1946) 420. - V.V. Nikit.et Vass. in Fl. Turkm. 4 (1949) 237. Gontsch. in Fl. Uzbek. 3 (1955) 584. - **Villis astragali**. Bu tur *Halicacabus* Bunge sektsiyasiga mansub bo'lib, Surxon qo'riqxonasidagi kamyob o'simlik turlaridan biri. Tizmaning Tangidara va Qizilolma hududlarida kichik areali tarqalgan. Asosan, shag'al-toshli yonbag'irlarda hamda archazorlar ichida d.s. 1200-1600 m balandlikda, yakka-yakka holda (8-10 dona) tarqalgan. Turning areali Katta Qurchuq tog'iga ham chiqadi [7]. Ushbu tur 2022 yil dala tadqiqotlarimiz davomida Surxon davlat qo'riqxonasining Qizilolma va Vandob bo'limlaridan yangi tarqalish nuqtalari aniqlandi va gerbariy namunalari jamlandi.




4-rasm. *Astragalus willisi*ning Google earth proda joylashish kordinatalari

5. *Astragalus bucharicus* Gontsch. in Fl.URSS. 12 (1946) 793. Gontsch. in Fl. Uzbek. 3 (1955) 647 *Astragalus bucharicus* Regel Janubiy-G'arbiy Pomir-Oloyda tarqalgan kamyob edemik o'simlik sanaladi. Bu tur Ko'hitang tizmasidan tashqari Hisor tizmasining Cho'lba'ir, G'ozimoylik, Oqboshtog' tizmalaridayam uchrashi aniqlangan. Asosan Ola-bula, loyqa va gipsli tuproqlarda, qizil qumtoshlarda o'sadi [8].

6. *Astragalus alexeji* Gontsch. in Fl.URSS. 12 (1946) 214 Gontsch. in Fl. Uzbek. 3 (1955) 536. *Astragalus alexeji* Gontsch Janubiy-G'arbiy Hisor tizmasining endemik o'simligi. *Astragalus alexeji* Surxondaryo viloyati: Kelif-Sherabotdagi qator tepaliklarda (Toshqoq darasida) tarqalgan bo'lib, kulrang, bo'z tuproqlarda o'sadi [8].

7. *Astragalus rubri-galli* PGontsch. in Fl.URSS. 12 (1946) 540. – V.V. Nikit.et Vass. in Fl. Turkm. 4 (1949) 24. *Astragalus rubri-galli* Popov Surxondaryo viloyati: Kelif-Sherabot tepaliklarida tarqalgan. Asosan qizil qumtoshli yonbag'irlarda o'sadi [8]. Ushbu turning eng so'gi gerbariy nqamunasi 2020-yil 20-mart sanasida oqtosh qishlog'idan 3 km janubdan rangbaran tubroqlardan Achilova, Qurbonniyozova, Po'latovlar tomonidan gerbariy namunalari terilgan. Hozirgi vaqtda Markaziy gerbariy (TASH) fondida saqlanmoqda [7].



5-rasm. *Astragalus rubri-galli*ning Google earth proda joylashish kordinatalari

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Определитель растений Средней Азии. Т.7. Ташкент Фан, 1983. – С. 323-368. (С. 364)
2. Flora Uzbekistana. V 3-i t. – Tashkent: Izd. AN UzSSR, 1955.
3. O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi. Toshkent: Chinor ENK, 2019. T.1. – 61 b.
4. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси 2022-7/1. С-52 Ибрагимов А.Ж., Каримов Б.К., Атоев К.Ў., Пардаев А.С., Тажетдинова Д.М. TASHN фондидаги Кўхитанг ботаник-географик районида оид гербарий намуналарининг таҳлили (Asteraceae оиласи мисолида)
5. *Невский С.А.* Материалы к флоре *Кугитанга* и его предгорий // Труды БИН АН СССР. – 1937. Вып. 4. – С. 199-346.
6. Хасанов Ф.О. Ксерофилная древесно-кустарниковая растительность Кугитанг-тау: Автореф. дис... канд. биол. наук. – Ташкент, 1987.– 20 с.
7. Ибрагимов А.Ж. Флора Сурханского государственного заповедника (хребет Кугитанг): Автореф. дис...канд. биол. наук. – Ташкент, 2010.– 22 с.
8. Ибрагимов А.Ж. Эндемизм флоры хребта Кугитанг // Биоразнообразие: проблемы и перспективы сохранения: Материалы межд. науч. конф. 13-16 мая 2008 г. – Пенза, 2008. – С. 217-219.